

INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY



Scopus || Electronic journal specializing in Scopus

ISSUE 2



Acceptance of papers **February, 2026**



Acceptance of papers

Published monthly



Topics

economics, technology, social sciences

ISSN 3060-5229



Digital Object Identifier



Visit the website t.me/scopus_IST2100

Editorial board:



EDITOR-IN-CHIEF:

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Makhmudov Nosir Makhmudovich
DSc., Prof., Academician

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli – Senior
lecturer at TSUI

THE SCIENTIFIC-POPULAR ELECTRONIC
JOURNAL **"INNOVATION SCIENCE AND
TECHNOLOGY"** HAS BEEN REGISTERED
UNDER THE NUMBER **C-5669633** BY THE
AGENCY FOR INFORMATION AND MASS
COMMUNICATIONS (AOKA) OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN, EFFECTIVE
FROM OCTOBER 9, 2024.

CONTACTS

Phone: **+998 50 737 87 88**

Website: <https://ist-journal.uz>

Email: innovationist2025@gmail.com

The scientific electronic journal "Innovation Science and Technology" has been included in the list of scientific publications recommended for the publication of main scientific results of dissertations for the award of PhD and DSc degrees in economics and technical sciences, in accordance with the Resolution No. 370 of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan, dated May 8, 2025.



Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,
Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor



Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of
Economic Sciences (DSc), Professor



Cham Tat Huei,
Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)



Muhammad Imran Sadiq
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Professor,
Malaysia



Ahmed Aziz Ismail
Doctor of Technical Sciences (DSc),
Professor (Egypt)



Lee Chin
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), (Malaysia)



Asongu SImplice
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Cameroon



Rui Dang
Doctor of Chemistry (DSc), Professor, China



Zahoor Ahmed
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Turkey



Shujaat Abbas
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Russia



Tina A Coffelt
Doctor of Philosophy in Educational Sciences (PhD),
USA



Abdikarimova Dinara Rustamxanovna
Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kurbonbekova Mohichehra Turobjonovna
Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Alimardonov Ilkhom Muzrabshokovich
Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor



Razakova Barno Sayfiyevna
Doctor of Philosophy in Economics (PhD)



Khasanov Sarvar Ulugbek ugli
Doctor of Philosophy in Economics (PhD)



Kholikova Rukhsora Sanjarovna
Associate Professor (PhD)

CONTENTS

DIGITAL TECHNOLOGY INTEGRATION TRENDS AND CHALLENGES IN PEDIATRIC DENTISTRY	15
Tursunov Begzod Sherzodovich, Solijonov Sherzod Qahramonovich	
THE ROLE OF RISKS AND RISK MANAGEMENT IN MANAGING THE SOLVENCY OF INSURANCE COMPANIES	20
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
INVESTMENT OPPORTUNITIES IN THE SECURITIES MARKET OF UZBEKISTAN: DIVIDEND YIELD, INSTITUTIONAL REFORMS AND INTERNATIONAL ATTRACTIVENESS.....	25
Akhliyor Ibragimov	
A CONCEPTUAL APPROACH TO ANTI-MONOPOLY CONTROL IN SERVICE INDUSTRIES ADAPTED TO THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN.....	30
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
TECHNOLOGICAL FEATURES OF WEAR-RESISTANT SURFACING OF METALLIC COMPONENTS ALLOYED WITH CARBON, MANGANESE, AND SILICON USING FUSED FLUXES.....	35
Khudoyorov Sardor Sadullaevich, Khudoykulov Nurilla Zikirillaevich	
ECONOMIC EFFICIENCY OF IMPLEMENTING INTEGRATED MARKETING COMMUNICATIONS IN ENTERING NEW MARKETS IN UZBEKISTAN	39
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
ENVIRONMENTALLY EFFICIENT FATLIQUORING AGENTS IN KARAKUL FATLIQUORING TECHNOLOGY	46
Rustamov Bobir Ismatovich, Shodieva Dilnoza Turajon qizi	
STRATEGIC PLANNING IN IMPROVING THE METHODOLOGY FOR MANAGING INVESTMENT PROJECTS IN THE TEXTILE INDUSTRY.....	51
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
FOUNDATIONS OF ENGLISH TEACHING BASED ON PROVERBS (UZBEK AND AFGAN WORDS).....	56
Samadi Nooria	
MATHEMATICAL MODELING AND SOLUTION ALGORITHMS OF GEOMETRIC PROBLEMS IN NUMERICALLY CONTROLLED MACHINES.....	60
Khasanov Bobirmirzo Makhmudali ugli, Yusupov Sardorbek Ma'rufovich, Abdullajonov Asadbek Sherzodbek ugli	
INNOVATION IS A KEY FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE ENERGY INDUSTRY	70
Gavkhar Absamatovna Khamdamova	
MARKETING PROBLEMS IN THE INTERNATIONAL INDUSTRIAL ENTERPRISE MARKET AND FOREIGN EXPERIENCE IN SOLVING THEM	76
Usmanova Dilfuza Ilhomovna	
FUZZY ROBUST CONTROLLERS FOR GAS PURIFICATION PROCESSES	82
Sh. D. Tulyaganov	
METHODOLOGICAL PROBLEMS OF MARKETING IN FURNITURE ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF THE IMPLEMENTATION OF THE NEW UZBEKISTAN DEVELOPMENT STRATEGY	87
Musayeva Shoirazimovna	
THE ROLE OF METHODOLOGICAL COMPETENCE IN FUNDAMENTALIZING THE PROFESSIONAL PREPARATION OF FUTURE ECONOMICS TEACHERS	92
Djumanazarova Zamira Kojabayevna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI	97
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

Isoqov Zafarjon Zokirjonovich

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti,

Turizm va tarjima kafedrası dotsenti v.v.b., PhD

E-mail: zafarjon.isoqov.84@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududlar mahalliy budjeti daromadlari barqarorligini iqtisodiy salohiyatni samarali rivojlantirish asosida ta'minlash masalalari yoritilgan. Xususan, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish, ularning soliqli daromad bazasini kengaytirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, tartibga soluvchi daromadlarning o'rni, hududlar budjeti daromadlarini oshirishda soliqlar va tushumlarning ahamiyati, shuningdek, mahalliy budjet daromadlarini mustahkamlash yo'llari tahlil qilingan. Bundan tashqari, soliqli daromadlarni turli darajadagi budjetlar o'rtasida taqsimlash mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, mahalliy budjetni rejalashtirish, mahalliy soliqlar, daromad bazalari, daromad siyosati, davlat budjeti, hududlar moliyasi, mahalliy boshqaruv organlari, budjetlararo munosabatlar, yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, majburiy to'lovlar, soliq stavkalari, soliq tizimi, soliq siyosati, soliqli daromadlar.

Abstract. This article examines the mechanisms for ensuring the stability of local budget revenues in regions based on the effective development of economic potential. Particular attention is paid to the formation of local budget revenues, the expansion of their tax revenue bases, the diversification of revenue sources, the role of regulatory revenues, as well as the importance of taxes and receipts in increasing regional budget revenues. In addition, the paper analyzes ways to strengthen local budget revenues and the mechanisms for distributing tax revenues among budgets of different levels from both theoretical and practical perspectives.

Key words: local budget, local budget planning, local taxes, revenue bases, revenue policy, state budget, regional finance, local government bodies, inter-budget relations, legal entities, individuals, mandatory payments, tax rates, tax system, tax policy, taxable income.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы обеспечения стабильности доходов местных бюджетов регионов на основе эффективного развития экономического потенциала. Особое внимание уделено вопросам формирования доходов местных бюджетов, расширения их налоговой базы, диверсификации источников доходов, роли регулирующих доходов, а также значению налогов и поступлений в увеличении доходной части региональных бюджетов. Кроме того, проанализированы пути укрепления доходов местных бюджетов и механизмы распределения налоговых поступлений между бюджетами различных уровней с научно-теоретической и практической точек зрения.

Ключевые слова: местный бюджет, планирование местного бюджета, местные налоги, налоговая база, налоговая политика, государственный бюджет, региональные финансы, органы местного самоуправления, межбюджетные отношения, юридические лица, физические лица, обязательные платежи, налоговые ставки, налоговая система, налоговая политика, налогооблагаемый доход.

KIRISH

Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishda, avvalo, davlat mablag'larini oqilona taqsimlash hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlovchi asosiy manba bo'lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini hududlarda samarali amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mahalliy budjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq qondirish, shuningdek, davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida budget tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichida davlat moliyasi tizimini yanada takomillashtirish, budget siyosatining samaradorligini oshirish, o'rta muddatli davrda qabul qilinadigan davlat dasturlari bilan bog'liq budget xarajatlarini baholash mexanizmlarini kuchaytirish hamda budgetni rejalashtirishda xalqaro e'tirof etilgan usullarni keng joriy etish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Bu yo'nalishlarda izchil islohotlarni amalga oshirish budget jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz moliya-budget tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi sharoitida mahalliy budgetlar imkoniyatlarini yanada kengaytirishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan hududlarning o'z ehtiyojlarini qoplash uchun yetarli moliyaviy manbalarga ega bo'lishi, ushbu mablag'lardan oqilona va samarali foydalanilishi hamda mahalliy budgetlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni keng qo'llash orqali masalaga tizimli yondashish zarur hisoblanadi.

O'zbekistonning o'rta muddatli rivojlanish strategiyasida mahalliy budgetlar daromadlar bazasini kengaytirish, xarajatlar tizimini isloh qilish, ularning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash hamda hududlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va ularning ijobiy natijalarini respublikamiz amaliyotida qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mahalliy budgetlarning o'z daromadlar bazasini mustahkamlash, soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish hamda soliqlarni yig'ish jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish budget tizimi samaradorligini oshirishning muhim omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot sharoitida mahalliy budget daromadlarini shakllantiruvchi soliqlarning mohiyati, ularning vazifalari va xususiyatlari, shuningdek, ular bilan bog'liq masalalarning nazariy jihatlarini xorijiy hamda respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan izchil ravishda tadqiq etib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-08-12 dagi 247-son qarori¹ga muvofiq, 2030-12-31 ga qadar to'lov tashkilotlarining raqamli platformalari orqali yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT) va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun davlat hamda moliyaviy onlayn xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutuvchi maxsus huquqiy rejimni joriy etish ma'qullandi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining naqdsiz hisob-kitoblarni keng joriy etish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan 2025-12-10 dagi PF-246-son Farmoni²ga asosan, 2026-04-01 dan boshlab davlat xizmatlari, elektr energiyasi, gaz va suv uchun to'lovlar, alkogol va tamaki mahsulotlari savdosi, yoqilg'i quyish shoxobchalari hamda elektromobillarni zaryadlash xizmatlari, qiymati 25 mln so'mdan yuqori bo'lgan tovar va xizmatlar, shuningdek, ko'chmas mulk hamda ayrim transport vositalari oldi-sotdisi bo'yicha to'lovlar faqat naqdsiz shaklda amalga oshirilishi belgilandi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-03-19 dagi PF-50-son Farmoni³ga muvofiq, 2026-01-01 dan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari, ya'ni ishlar va xizmatlar ro'yxatini maqbullashtirish nazarda tutilgan [3]. Xususan, amaldagi 112 ta faoliyat turi 72 taga qisqartirildi. O'zgarishlarning asosiy qismi yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatiga xos bo'lgan 40 ta yo'nalishga to'g'ri keladi. Jumladan, dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, repetitorlik, tikuvchilik, sartaroshlik va kosmetologiya xizmatlari, xonalarni tozalash, mebel yig'ish hamda avtomobillarni ta'mirlash kabi faoliyat turlari shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari soliq tizimini takomillashtirish, soliqlarni undirish mexanizmlarini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini zamonaviylashtirish orqali davlat va mahalliy budgetlarning daromadlar bazasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida iqtisodiyotda yashirin aylanmalar qisqarib, soliq to'lovchilar bazasi kengaymoqda, budget tushumlarining barqarorligi va prognoz qilinuvchanligi oshmoqda. Shu bilan birga, mahalliy budgetlarning moliyaviy mustaqilligi mustahkamlanib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, shuningdek, dasturlashtirish va raqamlashtirish modellaridan foydalanildi. Mazkur metodlar tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish, xulosalarning asoslanganligi hamda amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.08.2025 yildagi PQ-247-son <https://lex.uz/uz/docs/-7681520>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.12.2025 yildagi PF-246-son <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.03.2025 yildagi PF-50-son <https://lex.uz/uz/docs/-7444738?ONDATE=25.03.2025%2000>

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy budjetlar daromadlari hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni moliyaviy ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining asosiy moliyaviy resurs manbai hisoblanadi. Ushbu daromadlarning barqaror shakllanishi hududlarni izchil rivojlantirish hamda aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz budjet tizimini yanada takomillashtirish jarayonida bir qator ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish zarur. Avvalo, budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda mablag'lardan oqilona foydalanilishini nazorat qilish, budjet intizomiga to'liq rioya etilishini ta'minlash hamda ajratilayotgan mablag'larning belgilangan maqsadlarga yo'naltirilishini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Bu esa budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Budjet jarayonida daromadlarning o'z vaqtida shakllanishi muhim shartlardan biridir. Daromadlar o'z vaqtida va to'liq tushishini ta'minlash orqali rejalashtirilgan xarajatlarning izchil va samarali amalga oshirilishiga erishish mumkin. Shu bois, daromadlar bazasini mustahkamlash va tushumlarni barqarorlashtirish bo'yicha tizimli choralarni ko'rish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, budjet xarajatlarini samarali taqsimlash va maqsadli sarflash ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun moliya organlari, g'aznachilik tizimining hududiy bo'linmalari, budjet tashkilotlari hamda budjet jarayonida ishtirok etuvchi boshqa subyektlar kadrlar salohiyatini oshirish zarur. Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda shaffoflikni ta'minlash, ularni tejash va maqsadli sarflash mexanizmlarini kuchaytirish g'aznachilik tizimi hamda davlat xaridlari institutining izchil rivoji bilan chambarchas bog'liqdir.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish respublika va hududiy boshqaruv organlarining huquq hamda vakolatlarini yanada kengaytirishni taqozo etadi. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ushbu bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi vakolatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish hududiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ayni paytda, mahalliy budjetlar daromadlarining o'sish sur'atlarini umumiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga mos ravishda oshirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat budjeti daromadlarini budjetlar o'rtasida taqsimlash mexanizmini takomillashtirish, hududlar o'rtasida daromadlar bazasini yanada muvozanatli taqsimlash hamda budjet tizimining barcha bo'g'inlarida daromadlar manbalarini kengaytirish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni davom ettirish va amaliy jihatdan samarali yechimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha 2019–2024-yillar kesimidagi ma'lumotlar [4]⁴

TR	Yillar	Manbalar (mlrd so'm)			
		Daromad	Xarajat	Farqi (+/-)	Daromadga nisbatan xarajatlar, %
1	2019-yil	35 134,2	52 049,7	- 16 915,5	148,1
2	2020-yil	30 273,9	47 190,8	- 16 916,9	155,9
3	2021-yil	35 173,0	65 534,4	- 30 361,5	186,3
4	2022-yil	47 390,3	88 787,5	- 41 397,2	187,4
5	2023-yil	55 728,9	101 740,7	- 46 011,7	182,6
6	2024-yil	57 024,7	86 811,6	- 29 786,9	152,2
	Jami	260 725,0	442 114,7	- 181 389,7	169,57

Jadval ma'lumotlari 2019-2024-yillar davomida daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi nisbatda barqaror nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, tahlil qilinayotgan davrda daromadlarning umumiy hajmi 260 725,0 mlrd so'mni, xarajatlar esa 442 114,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, natijada 181 389,7 mlrd so'm miqdorida manfiy farq (taqchilik) shakllangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2019-yilda daromadlar 35 134,2 mlrd so'm, xarajatlar esa 52 049,7 mlrd so'mni tashkil etib, xarajatlarning daromadlarga nisbati 148,1 % ga teng bo'lgan. 2020-yilda daromadlarning 30 273,9 mlrd so'mgacha qisqarishi va xarajatlar darajasining yuqori saqlanib qolishi natijasida ushbu nisbat 155,9 % ga yetgan. Ushbu holat tashqi va ichki iqtisodiy omillar, jumladan, pandemiya sharoitlari bilan izohlanadi.

4 **Manba:** Muallif ishlanmasi

Respublikada 2021-2023-yillar davomida hududlarda xarajatlar hajmining sezilarli oshishi kuzatilgan bo'lib, ayniqsa 2022-yilda xarajatlar daromadlarga nisbatan 187,4 % ni tashkil etgan. Mazkur davrda ijtimoiy soha, infratuzilma va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xarajatlarning kengayishi budjet taqchilligining oshishiga olib kelgan. Eng yuqori manfiy farq 2023-yilda qayd etilib, u 46 011,7 mlrd so'mni tashkil etgan.

2024-yilda esa xarajatlar hajmining nisbatan qisqarishi natijasida xarajatlarning daromadlarga nisbati 152,2 % darajasiga tushgan. Bu holat moliyaviy intizomni kuchaytirish va budjet siyosatini muvozanatlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mazkur tahlil hududlarda daromadlar bazasini kengaytirish, soliq tushumlarini oshirish hamda xarajatlarning samaradorligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, budjet taqchilligini bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadida fiskal siyosatni takomillashtirish va o'rta muddatli budjet rejalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy budjet daromadlarining barqarorligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi farovonligini oshirish hamda davlat moliyaviy tizimining mustahkamligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida mahalliy budjet daromadlari shakllanishining nazariy asoslari, ularning tarkibi hamda barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar har tomonlama tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalliy budjet daromadlarining yetarli darajada shakllanishiga soliq bazasining torligi, hududlar iqtisodiy salohiyatidagi tafovutlar, transferlarga yuqori darajada bog'liqlik hamda soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish zarurati ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim hududlarda mahalliy daromadlarning muhim qismi yuqori budjetlardan ajratiladigan subsidiyalar va dotatsiyalar hisobiga shakllanayotgani moliyaviy mustaqillikni mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha choralarni talab etadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda fiskal markazsizlashtirish, mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy vakolatlarini kengaytirish hamda soliq tushumlarini oshirishga qaratilgan islohotlar mahalliy budjet daromadlarining barqarorligini ta'minlashda ijobiy natijalar bermoqda. Mavjud imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish uchun tizimli hamda ilmiy asoslangan yondashuvni yanada kuchaytirish zarur. Shu nuqtai nazardan, hududlarning iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali soliq bazasini kengaytirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda soliq to'lovchilarning soliq madaniyatini oshirish orqali tushumlarning to'liq va o'z vaqtida undirilishini ta'minlash, mahalliy budjetlarga birlashtirilgan soliq va yig'imlar ulushini bosqichma-bosqich oshirish orqali transferlarga bo'lgan qaramlikni kamaytirish, shuningdek, o'rta va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish doirasida mahalliy budjet daromadlarini prognozlashda strategik rejalashtirish mexanizmlaridan foydalanish budjet barqarorligini mustahkamlash va moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2025-08-12 dagi PQ-247-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7681520>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-12-10 dagi PF-246-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-03-19 dagi PF-50-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7444738?ONDATE=25.03.2025%2000>
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti ma'lumotlari — <https://imv.uz>.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari — <https://gov.uz/oz/soliq>.

Proofreader: Zokir ALIBEKOV

Layout and Designer: Oloviddin Sobir ugli

2026. № 2


© When materials are reproduced, the INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY journal must be cited as the source. Authors are responsible for the accuracy of the information in materials and advertisements published in the journal. Editorial opinions may not always align with those of the authors. Submitted materials will not be returned to the editorial office.

To publish articles in this journal, you may submit articles, advertisements, stories, and other creative materials through the following links. Materials and advertisements are published on a paid basis.

You may subscribe to the journal at any time using the following details. Once subscribed, please send a screenshot or photo of your payment confirmation to our Telegram page @iqtisodiyot_77. Based on this, we will send the latest issue of the journal to your address each month.

“The journal “INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY” has been registered by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan from 09.10.2024 under the registration number №390637. License number: C-5669633. PNFL: 30407832680027

Our address: Tashkent city, Yunusobod district, 19th block,
House 17.



Acceptance of articles

Published every
monthly



Directions

Social, economic, political,
technological, scientific

 **Scopus || Scientific electronic journal specializing in Scopus**

CERTIFICATE NUMBER: №390637

**ORDER NUMBER ACCORDING TO
THE LICENSE REGISTER: C-5669633**

CONTACT:

 Contact us
+998 50 737 87 88

 Telegram channel
t.me/scopus_IST2100

 Journal official website
<https://ist-journal.uz/index.php/IST>